



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 28-mart

VII-8-48-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman mahalliy budjetining erkin qoldiq manbalaridan foydalanish to'g'risida

“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarori, 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qarori, Budjet Kodeksining 126-moddasi hamda tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilish qarori, hamda deputatlarni fikr mulohazalariga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 6- 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq, sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari hamda 2025-yil 7-martdagi tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilishining 2-sonli bayoni qarori ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan jami **438 400,0 (to‘rt yuz o‘ttiz sakkiz mln to‘rt yuz) ming so‘m** mablag‘ 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlari ushbu ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish va bajarilgan ishlar bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda tuman Kengashiga hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budjet mablag‘larining to‘g‘ri va maqsadli xarajatga chiqarilishini ta‘minlash bo‘yicha shaxsiy javobgarlik mas‘uliyati yuklatilsin.

3. Mazkur Qaror ijrosi xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 28-martdagi
VII-8-48-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Tuman mahalliy budjetining erkin qoldiq mablag'laridan foydalanish to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Mablag' miqdori (ming so'm)	Asos
		Jami:	438 400,0	(To'rt yuz o'ttiz sakkiz mln to'rt yuz ming)
1	Tuman hokimligiga	Tumanda huquq targ'ibot maskanini qurish uchun	30 000,0	Kattaqo'rg'on tuman hokimligining 2025-yil 6-martdagi 02-02/192-sonli xati va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 7-martdagi 02/02-38-130-sonli xati
		tumanda yashovchi imkoniyati cheklangan fuqarolarga olib berilgan nogirinlik aravachasi hamda qo'ltiq tayoq maxsulotlari uchun	45 000,0	
2	Tuman tibbiyot birlashmasiga	Tibbiyot birlashmasiga qarashli Kattaming va Moybuloq oilaviy poliklinikalarining har birida 10 (o'n) o'rinli servis palatalari tashkil etish va jihozlash ishlarini amalga oshirish uchun	100 000,0	Tuman Tibbiyot birlashmasining 2025-yil 27-fevraldagi 05/331-sonli xati va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 4-martdagi 02/02-38-114-sonli xati
3	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga	52-57-MTTlarni ta'mirlash va jihozlash uchun	242 400,0	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining 2025-yil 5-fevraldagi 113-sonli xati va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 7-martdagi 02/02-38-131-sonli xati
		57-umumta'lim maktabiga elektron doska olish uchun	21 000,0	

